

# KICHIK YOSHDAGI O`QUVCHILARIGA EKOLOGIK BILIM BERISHDA PEDAGOGNING MAHORATI

*Gulnora Narmatova Tojiyevna*

Surxondaryo viloyati pedagogik mahorat markazi katta o`qituvchisi

**Annotatsiya.** Maqola boshlang`ich sinf o`quvchilariga ekologik bilim va tarbiya berishning pedagogik asoslari haqida yozilgan. Uzluksiz ekologik bilim va tarbiya jarayonida nazarda tutilgan yuqoridagi natijalarga erishish uchun bu jarayonning faqat dars mashg`ulotlarining takomillashtirilishiga, tabiiy fanlarining eng yangi texnologiyalar, zamonaviy metod, shakl va vositalar haqida mazkur maqolada so`z yuritilgan

**Kalit so`zlar:** tabiat, jamiyat, o`quvchi, atrof-muhit, ekologik bilim va tarbiya, pedagog.

## TEACHER SKILLS IN PROVIDING ECOLOGICAL EDUCATION TO EARLY STUDENTS

**Gulnora Narmatova Tojiyevna** - Senior teacher, Surkhandarya regional pedagogical skills center

**Abstract.** The article is written about the pedagogical foundations of environmental education for elementary school students. In order to achieve the above results envisaged in the process of continuous environmental education, only the improvement of the lessons of this process, the newest technologies, modern methods, forms and tools of natural sciences are discussed in this article.

**Key words:** nature, society, student, environment, ecological education, pedagogue.

**Абстрактный.** В статье говорится о педагогических основах экологического воспитания учащихся младших классов. Для достижения вышеуказанных результатов, предусмотренных в процессе непрерывного экологического образования, в данной статье рассматриваются только

совершенствование уроков этого процесса, новейших технологий, современных методов, форм и инструментов естествознания.

**Ключевые слова:** природа, общество, учащийся, окружающая среда, экологическое образование, педагог.

**Kirish.** Ekologik tarbiya tarbiyaviy jarayonning muhim yo`nalishlaridan biri bo`lib, bolaning atrof muhitga ijobiy munosabatini shakllantirish, uning tabiat elementlarining inson hayotidagi o`rnini ongli ravishda anglashi hamda olam manzaralari haqida keng va yorqin tasavvurga ega bo`lishi kabi maqsadlarga erishish orqali unda fanlar o`rtasidagi integratsiyalarni tushunishi, real tasavvurlarining rivojlanishi, o`quv-bilish faolligining ortishi kabi didaktik natijalar ko`zda tutiladi.

**Tahlil va natija.** Yig`ilgan tajribalarga ko`ra, ekologik madaniyatning tub negizi hisoblangan ekologik tarbiyaning ilk ildizlari inson hayotining dastlabki o`n yilligida shakllana boshlaydi. Biroq bolaning oila bag`rida oladigan ekologik tarbiyasi aksar hollarda stixiyaviy xususiyatga ega bo`lib, tizimli ko`rinishga ega bo`lmaydi va unda izchillik, uzviylik, onglilik kabi tamoyillarga amal qilinishi kuzatilmaydi. “Oilaviy muhitda ekologik tarbiya umumiy tarbiyaning tarkibiy qismi sifatida qaraladi va ko`proq milliy an`analar, qadriyatlar negizidagi olib boriladi. Shuning uchun ham biz ekologik tarbiyaning boshlang`ich bosqichi – boshlang`ich ta`lim davriga to`g`ri keladi” , degan fikrni to`g`ri deb hisoblaymiz.

Boshlang`ich sinf o`quvchilarining ekologik tarbiyasi ularning o`z mahallalari, o`z yashab turgan geografik hududlariga xos ekologik bilimlar, tabiatshunoslik, geografiya, boshlang`ich o`lkashunoslik kabi fan sohalari bo`yicha bilimlariga, tabiatga nisbatan ijobiy-emotsional munosabatlariga, oilaviy qadriyatlariga, ekologik qadriyatlar bilan milliy qadriyatlarning uyg`unlashtirilganligiga asoslanadi. Ekologik tarbiya tushunchasining pedagogik aspektida uning konseptual komponentlari quyidagilardan iborat bo`ladi:

-zarur darajada boshlang`ich ekologik bilimlar;

-mavjud ekologik bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo`llay bilish, ya`ni ekologik xatti-harakatlar ko`nikmasiga ega bo`lganlik;

- lokal va mahalliy ekologik muammolar haqida tasavvurga ega bo`lish;
- mahalliy ekologik muammolar bilan ijtimoiy turmush tarzi o`rtasidagi bog`liqliklarni tavsiflay bilish;
- ekologik bilim va ta`lim-tarbiyani milliy va mahalliy qadriyatlar bilan uyg`unlashtirish .

Shundan kelib chiqib, boshlang`ich sinf o`quvchilarining ekologik bilim va tarbiyasini jarayon sifatida tashkil etishda darsdan tashqari, sinfdan tashqari mexanizmlarini takomillashtirish ilmiy-pedagogik muammoga aylanadiki, bizning nazarimizda bu mexanizmlar bola ekologik madaniyatining axloqiy, emotsional va me`yoriy-faoliyatli komponentlarining zarur darajada shakllanishini ta`minlovchi, shuningdek, uning ekologik dunyoqarashini kengaytiruvchi pedagogik ta`sir vositasiga aylananadi.

Shu tariqa, boshlang`ich sinf o`quvchilarining ekologik bilim va tarbiyasini tashkil etishning quyidagi aspektlari muhim tarbiya mexanizmlari sifatida muhimlik kasb etadi:

- bolada oilaviy tarbiya va olam manzaralariga oid bilimlarni uyg`unlashtirish orqali tabiatga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish;

- atrof muhit komponentlari, tabiat vakillari bilan bevosita tanishish asnosida bolada hissiy-emotsional axloqiy-ekologik qarashlarni shakllantirish va davomli rivojlantirish;

- lokal ekologik muammolar, mahalliy ahamiyatga bo`lgan ekologik omillarni bartaraf etishga oid boshlang`ich ekologik bilimlarni shakllantirish orqali bolada ekologik madaniyatning dastlabki komponentlarini shakllantirish;

- darsdan tashqari vaqtlarda tabiat ob`ektlariga, tarixiy obidalarga o`lkashunoslik ekskursiyalari uyushtirish orqali boshlang`ich sinf o`quvchisining tabiat va atrof muhit bilan bevosita muloqotga kirishishi uchun sharoit yaratish;

- xalq pedagogikasi, oilaviy pedagogika vositalari orqali bola shaxsining shakllanishida tabiat va atrof muhitga ijobiy munosabatning ustivorligiga erishish;

- boshlang`ich ta`lim mazmunini hosil qiluvchi o`quv fanlari mundarijasini ekologik va atrof-muhit muhofazasiga oid mavzular bilan boyitish;

-tabiatshunoslik mavzulariga bag`ishlangan sinfdan tashqari mashg`ulotlar va tarbiyaviy soatlar mundarijasini ishlab chiqishda atrof muhitga bo`lgan ijobiy munosabatni shakllantirishga qaratilgan mavzularning ustivorligini ta`minlash .

Biroq hozirgi kunda boshlang`ich sinf o`quvchilarining ekologik tarbiyasi sohasidagi jarayonlar va voqeliklar o`rtasida bir qator qarama-qarshiliklarni kuzatish mumkin. Xususan:

-maktab darsliklaridagi ekomadaniy tartiblarning deklarativ tarzda o`rnatilishi va atrof muhitga nisbatan sodir etilayotgan salbiy xatti-harakatlar o`rtasidagi nomuvofiqliklar (ya`ni bolaning darsdan tashqari vaqtida tabiatga nisbatan kattalar tomonidan sodir etiladigan tajovuzlar);

-olaning boshlang`ich sinf o`quvchisiga taqdim etiladigan ko`rgazmali manzarasining mukammallik kasb etishi uchun sinfda tashkil etiladigan dars mashg`ulotlarining o`quvchining tashqi muhit bilan munosabatga kirishi borasidagi imkoniyatlarning cheklanganligi;

-bola shaxsini rivojlantirish jarayonining uzluksizligini to`laqonli ta`minlanishi uchun unda ekologik dunyoqarashning shakllanishiga turli tarbiya institutlari tomonidan ta`sir etish tuzilmalari mavjud emasligi;

-kichik yoshli o`quvchilarning atrof muhit va tabiatni emotsional-timsolli idrok etishlari uchun tarbiyaviy ishlarning ratsional tafakkur asosida yo`lga qo`yilishidagi ayrim kamchiliklar.

*Ekologik dunyoqarash shakllanganligining navbatdagi bosqichi shaxsning ekologik madaniyatga ega bo`lishidek pirovard natija hisoblanadi.* Bunday sharoitlarda o`qituvchining asosiy vazifasi – boshlang`ich sinf o`quvchilarining yoshga oid, individual va psixologik imkoniyatlaridan kelib chiqib, ularda boshlang`ich ekologik madaniyatni shakllantirishning mundarijasini belgilab olishdan iborat bo`lmog`i lozim. Shu o`rinda ekologik madaniyat tushunchasi va uni shakllantirish mexanizmlariga to`xtalib o`tish zarurati tug`iladi.

**Xulosa.** Xo`sh, biz “ekologik madaniyat” deganda nimani tushunimiz lozim? Ekologik madaniyat va ekologik tarbiya, ekologik tafakkur va ekologik ong tushunchalari o`rtasida qanday strukturaviy, konseptual aloqadorliklar va

umumiylıklar mavjud? Umumiy tarzda qaraydigan bo'lsak, ekologik madaniyat – bu tabiat va atrof-muhit bilan kechadigan munosabatlarda hal etiladigan masalalarni ekologiyaga oid bilim, malaka, ko'nikma va eng muhimi qat'iy javobgarlik hissi bilan hal etish zaruratini ongli ravishda his etishdir.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. Бобылев Л.Д, Бобылева О.Д. Экологическое воспитание младших школьников. Начальная школа. – 2003. - № 5. – С.64-75.
2. Бобылева Л.Д. Практическая направленность экологического образования младших школьников / Межвуз. сб. науч. тр. – 1989. – С.77-83.
3. Кириллова З.Л. Экологическое образование и воспитание школьников в процессе изучения природы / З.Л. Кириллова// Начальная школа. – 1989. – № 5. –С.25-27.
4. Бобылева, Л.Д. Повышение эффективности экологического воспитания. - Биология в школе. – 2008. - №3. – С. 57-59.
5. Цветкова И.В. Теоретические и методические основы экологического воспитания младших школьников во внеурочное время, автореферат дисс. кан.пед. наук. Москва-1999, С.-7.
6. Новиков Ю.И. Охрана окружающей среды. М.Высшая школа, 1987.
7. Tilovov T. Ekologiyaning dolzarb muammolari. –Qarshi: Nasaf, 2003.
8. А.Ю. Винокуров. Актуальные вопросы прокурорского надзора и обеспечения законности в сфере экологии. М.2008.с-218.
9. Б.М. Миркин, Л.Г. Наумова. Проблема формирования экологического менталитета. Экология и жизнь.-2011.-№ 7, с.49.